

AMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Erkinova Zarina Xurshid qizi

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Innovatsion kompetentlik tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim talablariga mos holda tayyorlashda metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion kompetentlik, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari, zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы развития инновационной компетентности будущих учителей иностранных языков в условиях современного образования. Анализируется сущность понятия «инновационная компетентность», её структура и значение в профессиональной подготовке будущих педагогов. Особое внимание уделяется использованию инновационных педагогических технологий, интерактивных методов и цифровых образовательных средств в учебном процессе. Результаты исследования подтверждают необходимость формирования инновационной компетентности как важного условия подготовки конкурентоспособных учителей иностранных языков.*

Ключевые слова: *инновационная компетентность, будущие учителя иностранных языков, современное образование, педагогические технологии, профессиональная компетенция.*

Abstract: *This article examines the development of innovative competence of prospective foreign language teachers in the context of modern education. The concept of innovative competence, its components, and its role in the professional training of future teachers are analyzed. Particular attention is paid to the use of innovative pedagogical technologies, interactive teaching methods, and digital tools in the educational process. The study highlights the importance of developing innovative competence as a key factor in preparing future foreign language teachers who meet the requirements of contemporary education.*

Keywords: *innovative competence, prospective foreign language teachers, modern education, pedagogical technologies, professional competence.*

KIRISH

O'quv-tarbiya jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning ustuvor maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun o'quv reja va o'quv modullari mazmunida aniq natijaga yo'naltirilgan yuqori samarali pedagogik faoliyat tajribasini shakllantirishga xizmat qiluvchi mavzular, o'quv materiallari hamda didaktik topshiriqlar tizimli ravishda ishlab chiqiladi va taqdim etiladi, jumladan, talabalarda pedagogik prognozlashga oid ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan holda, bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyani shakllantirishning fundamental asoslarini mustahkamlash nazarda tutiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning tarkibiy qismlarini batafsil o'rganish, uning samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Bo'lajak o'qituvchilar prognozlash kompetensiyasiga ega bo'lishlari uchun quyidagi ko'nikmalarni o'zlashtirishlari talab etiladi:

- o'zlarining kasbiy faoliyatlari va o'quv jarayonini rejalashtirish;
- ixtirochilik qobiliyatiga ega bo'lish;
- ta'lim jarayonida faoliyatli yonashgan holda o'z oldiga aniq maqsad q'yish hamda algoritmlash layoqatini namoyon etish kabilar.

Zamonaviy chet tillarni o'qitish metodikasida o'qituvchining innovasion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Bu borada sezilarli ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan biri V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi. V.A.Slastenin o'zining "Pedagogika: innovasion faoliyat" asarida akmeologiyaning yuksak professionalizma, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'yektiv va ob'yektiv omillarini asoslab berdi. Ob'yektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'yektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizma erishishning omillari sifatida olim quyidagilarni ko'rsatadi:

- iste'dod nishonalari;
- o'quvlik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z xatti-harakati.

Mutaxassislar bo'lajak o'qituvchining pedagogik kompetensiyalari tarkibiga kiradigan birliklarni aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. Ular:

- bo'lajak o'qituvchining motivli yo'nalishlari, ustanovkalari, qadriyatlari, ideallari;
- maqsadga yo'naltirilgan harakatlar majmuyi;
- bo'lajak o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini umumlashtirish tajribasi;
- bo'lajak o'qituvchilarning ko'p funksiyali bilimlari, o'zaro mos keladigan maqsadlari va kasbiy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish layoqati.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)larmuxim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muxim sharti mulokotning yangi vaziyatini yaratishidir.

- Mulokotning yangi vaziyati-bu o'qituvchining o'z mustakillik

- mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashtirib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati uzgarib boradi, xissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Oliy pedagogik ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar tufayli bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentsiyani majmui muntazam tarzda transformatsiyalashtirilmoqda. Ushbu omilning asosini bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning o'ziga xos yo'nalishlari tashkil etadi. Mutaxassislar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini tasniflashga harakat qilganlar hamda ushbu tizimda prognozlash kompetensiyaning tarkibini ham belgilab berganlar.

Bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish oliy pedagogik ta'limning jarayonli kompetentning muhim tarkibiy qismi bo'lib, pedagogik faoliyatning samarali amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetentsiyaning shakllantirish oliy pedagogik ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim tizimini islox qilish, xususan xorijiy tillarni o'rganishni kuchaytirish va yanada takomillashtirish borasida keng miqiyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar zahirida pedagoglarning faoliyatlari alohida o'rin egallaydi. Xususan o'qituvchining innovatsion faoliyati katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'limga xos muxim jixatlardan biri - pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi.

Ta'lim tizimi o'qituvchisining samarali faoliyati uning chuqur va rang-barang kasbiy bilimlari, dars berish metodikasini egallanganligi, o'z mehnatining psixologik asoslarini hisobga olishi bilan bog'langan. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bulib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Узнадзе Д. Психология установки. – СПб.: Питер, 2001. – 207 с

2.Ismoilova D.M. Ta'lim sohasida prognoz qilish ilmiy-pedagogik muammo sifatida

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 |
2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020.